

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
QO’QON DAVLAT UNIVERSITETI



“TASDIQLAYMAN”
Qo‘qon davlat universiteti
rektori D.Sh. Xodjayeva
29-avgust 2025 yil

“MUSTAQILLIK VA MA’NAVIY-MA’RIFIY ISHLARI”
TANLOV FANINING O’QUV DASTURI
(magistatura yo’nalishi uchun)

Bilim sohasi: 100 000-Ta’lim

Ta’lim sohasi: 110 000-Ta’lim

Ta’lim mutaxassisligi: 70112101- Ijtimoiy-gumanitar fanlarni o’qitish metodikasi
(Ma’naviyat asoslari)

Qo’qon – 2025

Fan/modul kodi MMMI2105		O'quv yili 2025-2026	Semestr 1	ECTS - Kreditlar 4	
Fan/modul turi Tanlov fan		Ta'lim tili O'zbek		Xaftadagi dars soatlari 2	
1	Fanning nomi		Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yukla ma (soat)
	Mustaqillik va ma'naviy-ma'rifiy ishlar		60	90	150
2	I. Fanning mazmuni Magistrantlarga mustaqillik yillarida O'zbekiston Respublikasida yuz bergan muhim o'zgarishlar, ma'naviy-ma'rifiy sohada olib borilgan tub islohatlarning mazmun-mohiyatini ochib berish hamda bu o'zgarishlarni jamiyatni har tomonlama rivojlanishidagi ahamiyatini ilmiy dalillar va hujjatlar orqali tushuntirish va ilmiy va daliliy xujjatlar orqali magistrlarda . jamiyat hayotida ma'naviy-ma'rifiy jarayonning o'rne va ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etishning metodikasini shakllantirishdan iborat. Fanning maqsadi. Fanni o'qitishdan maqsad: Fanning asosiy maqsadi mutaxassis magistrLARINI mamlakatimiz mustaqillik davrida ma'naviy-ma'rifiy sohada bo'lgan o'zgarishlar va bujarayonning murakkabligi bilan tanishtirish va ayni paytda magistrlarda ma'naviy-ma'rifiy tarbiya olib boorish metodlari, sharrtlari va yo'nalishlari bilan tanishtirish dan iborat. Fanning vazifasi: Ijtimoiy-gumanitar fanlarni o'qitish metodikasi (Ma'naviyat asoslari) magistratura mutaxasislarini Ta'lim to'g'risidagi qonun asosida ma'naviy-ma'rifiy tarbiyalash va ta'limni samarali tashkil etishga o'rgatish, pedagogik faoliyatni to'la anglay olish qobiliyatini shakllantirish, pedagogik faoliyatni tashkil etishda innovatsion yo'nalishlarni o'rganish hamda hozirgi davrida paydo bo'layotgan ma'naviy va ma'rifiy muammolarni o'z vaqtida anglash, uning sabablarini ochib bera olish va uni bartaraf etishning mustaqil yo'llarini ishlab ciqish tajribasini shakllantirishdan iborat. 1.2. Fanni o'zlashtirishga qo'yiladigan talablar. “Mustaqillik va ma'naviy – ma'rifiy ishlar” o'quv fanini o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida magistr: - ta'lim sohasida davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari; ilmiy-nazariy asoslari, ma'naviy va ma'rifiy tarbiya nazariyasini unga oid tushunchlarni, uning kategoriya va tamoyillari; o'quv jarayonini tashkil etishning metod va shakllariga qo'yilgan zamonaviy talablar; ta'lim oluvchilar shaxsi omillari, uning shakllanish taraqqiyoti; yagona o'quv-tarbiya jarayonini tashkil etish va amalga oshirish; tarbiya jarayonining qonuniyatlari va tamoyillari; ilg'or pedagogik texnologiya asoslari; pedagogik terminologiyani bilishi kerak; - milliy ma'naviyat va asosiy pedagogik qonuniyatlar hamda tamoyillarga asoslangan holda o'quv-tarbiya ishlarini o'tkazish; ta'limni tashkil etishning asosiy shakllarini amaliyotda qo'llash; ta'lim va tarbiya metodlari, vositalarini amaliyotda qo'llash, aniq vaziyatlar uchun ularning qulay variantlarini tanlash; o'quv va tarbiya jarayonida o'quvchilar jamoasini samarali boshqarish; o'quvchilar xulqi va faoliyatini rag'batlash; pedagogik vaziyatlarni, ta'lim va tarbiya natijalarini tahlil etish, o'quvchilar va o'quvchilar jamoalarini o'rganish, ta'limda orqada qolish sabablarini aniqlash ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak; - Mustaqillik davrida ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil qilishning mamlakat miqyosida boshqarilishi, O'bekiston Respunlikasi Prezidentining qaror va farmonlari, BM qarorlari, Respublira “Ma'naviyat-ma'rifat kengashi”ning faoliyati bilan chuqur tanishish, psixologik-pedagogik adabiyotlar bilan ishlash; zarur metodik yo'riqnomalar tuzish; samarali pedagogik				

tadqiqotlar o'tkazish; ta'limning axborot texnologiyalaridan foydalana olish; sinf va guruh rahbarining ma'naviy-axloqiy, tarbiyaviy ishlarini; ijodiy, erkin fikrli, har tomonlama barkamol shaxsni shakllantirishni rejalashtirish va amalga oshirish; mahalla va ota-onalar bilan amaliy ishlar; jamoaning psixologik sharoitini va auditoriya bilan munosabatda individual, shaxsiy va yosh imkoniyatlarini hisobga olish **malakalariga ega bo'lish kerak.**

1.3. Fanning boshqa fanlar bilan bog'liqligi.

«Mustaqillik – milliy tiklanish» fani “Ma'naviyatshunoslik”, “Falsafa”, “O'zbekistonning eng yangi tarixi”, “Mustaqillik va ma'naviy tarbiyaviy ishlar” va boshqa ijtimoiy-gumanitar fanlar uzviy bog'liq

II.Asosiy nazariy qism (mahruza mashg'ulotlari)

II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:

1-Mavzu: Ma'naviy-ma'rifiy faoliyatning mohiyati, maqsadi, vazifalari va asosiy yo'nalishlari

Ma'naviyat va ma'rifat tushunchalarning dialektikasi. Ma'naviy-ma'rifiy ishlarning mohiyati. Ma'naviy-ma'rifiy sohadagi vazifalar. Ma'naviyat va ma'naviy tarbiya. Ma'naviyatning eng qadimgi asoslari. Ma'rifat va uning asoslari. Ma'naviy-ma'rifiy jarayonlarning tarkibiy tizimlari. Ma'naviy-ma'rifiy jarayonlarning asosiy yo'nalishlari: oila, ta'lim muassasalari, milliy til, fan, adabiyot va sanat, mafkura, ziyolilar guruhi, jamoat tashkilotlari.

2-Mavzu: Jamiyat hayotining asosiy sohalari.

Jamiyat yagona ijtimoiy organizm ekanligi. Jamiyat, inson va ma'naviyat: moddiy va ma'naviy xayot mushtarakligi. Ma'naviy yuksalish qonunlari. Ijtimoiylik atamasi – jamiyat hayotining turli tomonlarini belgilash uchun xizmat qiluvchi tushunchadir. Yangi O'zbekiston Taraqqiyot Strategiyasining asosiy maqsadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH. M. Mirziyoyevning ma'naviy-ma'rifiy ishlarni takomillashtirish bo'yicha o'ndan ortiq qaror va farmonlari

3-Mavzu. Jamiyatning ma'naviy hayoti.

Jamiyatning ma'naviy hayoti tushunchasi. Jamiyat ma'naviy hayotining tarkibiy elementlari. Ma'naviy ishlab chiqarish deganda ong, g'oyalar, qarashlarni ishlab chiqarish nazarda tutiladi. Jamiyatning ma'naviy hayoti o'ziga xos tarkibiy tuzilishga ega. Ma'naviy ishlab chiqarish o'zining bir qator jihatlar bilan moddiy ishlab chiqarishdan farqlanadi. Ma'naviy munosabatlar ijtimoiy ong orqali amalga oshadi. Ma'naviyat – kishilarning o'zaro munosabatlari va hayotiy tajribalari davomida shakllanadigan va rivojlanadigan qadriyatlar tizimi.

4- Mavzu: Mustaqillik yillarida O'zbekistondagi ma'naviy – ma'rifiy taraqqiyoti.

O'zbekiston Respublikasining “Ta'lim to'g'risidagi Qonunini ta'limni insonparvarlashtirish to'g'risida. Ta'limni insonparvarlashtirishning ma'naviy-ma'rifiy asoslari. Ta'lim-tarbiya tizimini insonparvarlashtirish, jamiyatni insonparvarlashtirishning ajralmas tarkibiy qismi. Ta'lim berish - o'qitishning turi, o'quvchilarga bilimlar, o'quv va malakalar majmuini berishga va ularni o'qitish jarayonida tarbiyalashga yo'naltirilgan o'qituvchining maxsus faoliyati Ta'lim tizimi – ta'limning mazmuni, shakli va usullarini belgilovchi qoidalar (tamoyillar) asosiy ketma-ketlik, oddiydan murakkabga qarab borish tizimi.

5- mavzu- Manaviyat tushunchasiga turli yondashuvlar.

Ma'naviyat nima, degan savolga ilmiy, siyosiy, publitsistik adabiyotlarda turlicha yondashuvlar mavjud. Ratsionalizm, Irratsionalizm, Ezoterika, Metafizika, Pozitivizm, Semiotika, Sinergetika, Dialektika. Ma'naviyat - ijtimoiy hodisa. Ong va ma'naviyat. Ma'naviy ong. Ma'naviy muhit ma'naviyatning tarkibiy qismi sifatida. Ma'naviyat tushunchasining ta'rifi va tuzilmasi. Mustaqil taraqqiyotning ma'naviy asoslari. Ma'naviy muhit.

6-mavzu: Ma'rifat tushunchasi. Ma'naviyat va ma'rifatning o'zaro aloqadorligi.

Ma'rifat tushunchasi. Uning mazmun va mohiyati. Ma'naviyat va ma'rifatdagi o'zaro uyg'unlik. Ma'naviyat va ma'rifatning yangi jamiyatni qurishdagi qudratli kuch va bebaho manba ekanligi. Ta'lim-tarbiya - shaxs mahaviy fazilatlarini shakllantirishga [qaratilgan tizim](#). Ta'lim va tarbiyadagi uzviylik. Shaxs va millat ma'naviy takomilining uyg'unligi. Ma'naviy qashshoqlikning jamiyat taraqqiyotiga salbiy ta'siri

7-mavzu. Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimi oldidagi g'oyaviy muammilar.

Respublikamizga yot g'oyalarning kirib kelishi. 90-yillardagi ma'naviy va ma'rifiy bo'shliqning oqibati. Jahonning demokratik mamlakatlarida g'oyaviy tarbiya. XXI asr boshkari mafkuraviy kurashlarning yangi tahdidlar bilan va ilmiy-texnologik asosga qurilgan targ'ibotlar kurashi davri. O'zbekistonning Markaziy Osiyodagi o'rnini. O'zbek xalqi milliy xarakteri, ma'naviyatining shakllanish. Milliy mafkuraviy immunitetni har bir fuqarodagi mustaqillikning siyosiy mohiyati,

8-mavzu: Ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tartibga soluvchi meyoriy-huquqiy hujjatlar
O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Respublika "Ma'naviyat va ma'rifat" jamoatchilik markazini tashkil etish to'g'risidagi Farmoni. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Respublika ¹⁰Ma'naviyat va ma'rifat⁹ jamoatchilik markazining faoliyatini tashkil etish to'g'risida Qarori. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Milliy g'oya targ'iboti va ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish to'g'risidagi Qarori. O'zbekiston respublikasi prezidentining 2021-yil 26-martdagi "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5040-son qaror

9-mavzu: Hozirgi bosqichda ma'naviy-ma'rifiy ishlar va unga qo'yilayotgan talablar

Ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etish muhim vazifalardan biri sifatida. Mamlakatimizda ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tizimli tashkil etilishi. Ma'naviy-ma'rifiy ishlar, sohasida amalga oshirilayotgan ishlar. Aholining, yoshlarning intellektual salohiyati, ongu tafakkuri va dunyoqarashini yuksaltirish, mafkuraviy immunitetni mustahkamlash, vatanparvarlik, xalqqa muhabbat va sadoqat tuyg'usi bilan yashaydigan barkamol avlodni tarbiyalashga yo'naltirilgan ishlar. Respublika Ma'naviyat va ma'rifat kengashituzilishi va uning vazifalari.

10-mavzu: Respublika Ma'naviyat va ma'rifat Kengashining tashkil etilishi va faoliyati

Hozirgi bosqichda ma'naviy-ma'rifiy ishlarning ahvoli va unga qoyilayotgan talablar. Respublikamiz Prezidenti va Hukumatining ma'naviyat va ma'rifatga oid farmonlari va qarorlarini jamoada keng muhokama qilish, ulardan kelib chiqadigan vazifalarni belgilab olish. Respublika "Ma'naviyat va ma'rifat" Kengashi, viloyat, shahar va tumandagi, tegishli bo'limlar bilan yaqindan hamkorlik o'rnatish, mazkur tashkilotlar xodimlari bilan doimiy uchrashuvlar o'tkazib turish. Respublika "Ma'naviyat va ma'rifat" Kengashi va uning joylardagi tashkilotlar bilan hamkorlikda universitetda muntazam ravishda kitob savdosi tashkil etib turish.

11-mavzu- Global davr madaniyat sohasidagi inqirozlar

Madaniyat sohasidagi globallashuvning sabablari. Yot madaniyatga munosabat. "Ommaviy madaniyat" va uning tarqalish sabablari. Yot madaniyatning milliy madaniyatga va millatga ta'siri besh bosqichdan iborat bo'ladi. madaniyat sohasidagi globallashuv avlodlar o'rtasida ziddiyatning vujudga kelish. Yot madaniyatga munosabatning hozirgi kundagi shakllari.

12-mavzu. Ma'naviyat va axborot texnologiyalari

Axborot texnologiyalari globallashuvning o'ziga xos xususiyatlari. Internet axborot globallashuvini o'ziga xos vositasi. Axborotlashgan jamiyatda global muammolarni hal qilish yo'llari. Elektron hukumat shakllanishining globallashuvi. Elektron dunyoni turli siyosiy kuchlar, terroristik, ekstremistik-tashviqotlar va g'oyalarni targ'ib qiluvchi, har-hil jinoiy to'dalarning faoliyatlarini amalga oshirishlariga va o'z qarashlarini ommaga targ'ib qilishlariga ham ko'maklashmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005 yil 29 sentyabrdagi "O'zbekiston Respublikasining jamoat ta'lim axborot tarmog'ini tashkil etish to'g'risida"gi qarorining ahamiyati.

13-mavzu- Ma'naviyat va ma'rifatni yuksaltirish vazifalari.

Ma'naviyat va ma'rifatning birligi. Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish, bu borada davlat va jamoat tashkilotlarining hamkorligini kuchaytirish. Ma'naviy-ma'rifiy ishlarni yangi darajaga olib chiqish bo'yicha chora-tadbirlari. Vatanimiz mustaqilligining ma'naviy asoslarini mustahkamlash milliy qadriyatlarimiz, an'ana va urf –odatlarimizni asrab – avaylash, xalqimiz, ayniqsa yosh avlod qalbi va ongiga ona yurtga muhabbat, istiqloлга sadoqat tuyg'ularini chuqur singdirish masalasi bugungi kunning asosiy vazifasi ekanligi..

14-mavzu:Ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etishning zamonaviy texnologiyalari.

Ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etishda kompyuter texnologiyalaridan foydalanish. Axborot texnologiyalaridan foydalanish. Yoshlarni ma'naviy tahdidlardan himoya qilishda zamonaviy texnologiyalarning roli. Ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etish usullari, texnologiyalari, ustuvor yo'nalishlari O'zbekistonda ma'naviy-ma'rifiy ishlarni va mafkuraviy jarayonlarni tashkil etishning ustuvor yo'nalishlari quyidagilardan iborat: belgilangan tadbirlarning yuqori darajada uyushqoqlik bilan o'tkazilishini ta'minlash; ma'naviyatning, milliy g'oyaning targ'iboti sifatini muntazam oshirib borish; davr talablaridan kelib chiqqan holda ma'naviy-ma'rifiy va mafkuraviy ishlarni tashkil etishning yangi, samarali yo'llarini izlash; bu sohada eski uslublarning mutlaqlashtirilishiga, andozalashtirishga yo'l qo'ymaslik; ma'naviy-ma'rifiy ishlar va mafkuraviy jarayonlarni tashkil etishda ijtimoiy muhitni hisobga olish.

15 mavzu. Zamonaviy jarayonida millat va milliy o'zlikni anglash masalalari.

Globallashuv jarayonida millat masalalari. Demografik globallashuv, ma'naviyat va qadriyatlar. O'zbekistonning xalqaro hamjamiyatda milliy o'zligi bilan tanishtirishi. Insoniyat sivilizatsiyasi tarixi shuni tasdiqlaydi, tarixiy an'ana va boy madaniy-ma'naviy salohiyatga asoslangan davlat taraqqiyotiga erishish va tarixda ijobiy iz qoldirishi, SHarq va g'arb sivilizatsiyalari. O'zbekistonning boy tarixiy merosi, uning ma'naviy-axloqiy an'analari, jahon madaniyatiga qo'shgan hissi. Respublikamizni tarixiy va madaniy merosni muhofaza qilish sohasidagi bir qator xalqaro hujjatlarga qo'shilishi.

III. Amaliy mashg'ulotlari bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. Ma'naviy-ma'rifiy faoliyatning mohiyati, maqsadi, vazifalari va asosiy yo'nalishlari
2. Jamiyat hayotining asosiy sohalari.
3. Jamiyatning ma'naviy hayoti.
4. Mustaqillik yillarida O'zbekistondagi ma'naviy – ma'rifiy taraqqiyoti..
5. Manaviyat tushunchasiga turli yondashuvlar..
6. Ma'rifat tushunchasi. Ma'naviyat va ma'rifatning o'zaro aloqadorligi.
7. Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimi oldidagi g'oyaviy muammilar.
8. Ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tartibga soluvchi meyoriy-huquqiy hujjatlar.
9. Hozirgi bosqichda ma'naviy-ma'rifiy ishlar va unga qo'yilayotgan talablar.

10. Respublika Ma'naviyat va ma'rifat Kengashining tashkil etilishi va faoliyati
11. Global davr madaniyat sohasidagi inqirozlar.
12. Ma'naviyat va axborot texnologiyalari.
13. Ma'naviyat va ma'rifatni yuksaltirish vazifalari.
14. Ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etishning zamonaviy texnologiyalari.
15. Zamonaviy jarayonida millat va milliy o'zlikni anglash masalalari.

Seminar mashg'ulotlar mulg'timedia qurilmalari bilan jixozlangan auditoriyada bir akademik guruxga bir professor - o'qituvchi tomonidan o'tkazilishi zarur. Mashg'ulotlar faol va interfaol usullar yordamida o'tilishi, mos ravishda munosib pedagogik va axborot texnologiyalar qo'llanilishi maqsadga muvofiq.

IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. Ma'naviyatning mazmun mohiyati.
2. Ma'rifatning mazmun mohiyati
3. Ma'naviyat, ma'rifat inson tushunchalarining uzviy aloqadorligi.
4. O'zbekistondagi islohotlarning ma'naviyat bilan bog'liqligi.
5. Jamiyatning iqtisodiy, ijtimoiy –siyosiy, madaniy huquqiy va ma'rifiy sohalarini rivojlantirishdan ko'zlagan asosiy maqsad.
6. Yangi O'zbekiston Taraqqiyot Strategiyasida ma'nayat masalalari.
7. 2021 yil 19 yanvardagi videoselektorda ma'naviyat masalalariga yangicha munosabatning shakllanishi.
8. O'qituvchining ma'naviy-ma'rifiy sifatleri.
9. Ma'naviyat va qadriyatlar.
10. Jamiyatdagi moddiylik va ma'naviylikni, ob'ektivlik va sub'ektivlikni.
11. Dunyoda har bir narsaning o'zagi, mohiyati mavjud ekanligi.
12. Ma'naviyat kishining xulq-u odobida namoyon bo'lishi.
13. Ma'naviyat insoniyat ichki olamining nafis va nodir boyligi sifatida
14. Birinchi Prezidentimizning «YUksak ma'naviyat — engilmas kuch» asarida ma'naviyatning ta'rifi.
15. Jamiyat yagona ijtimoiy organizm ekanligi.
16. Jamiyat, inson va ma'naviyat: moddiy va ma'naviy xayot mushtarakligi.
17. Ma'naviy yuksalish qonunlari.
18. Jamiyatning ma'naviy hayoti tushunchasi. Jamiyat ma'naviy hayotining tarkibiy elementlari.
19. Ijtimoiy ong jamiyat ma'naviy hayotining asosi sifatida
20. Mustaqillik yillarida ma'naviy hayot, ma'naviy merosning tiklanishi
21. Tarixiy haqiqat, tarixiy xotiraning tiklanishi.
22. O'zbekistonning milliy istiqlol g'oyasi, uning mohiyati va ahamiyati.
23. Mustaqillik yillarida adbiyot, sana't, kino va sport sohasidagi yutuqlar.
24. Manaviyat tushunchasiga turli yondashuvlar.
25. Ma'naviyat - ijtimoiy hodisa.
26. Ong va ma'naviyat. Ma'naviy ong..
27. Ma'rifat tushunchasi. Uning mazmun va mohiyati. Ma'naviyat va ma'rifatdagi o'zaro uyg'unlik.
28. Ma'naviyat va ma'rifatning yangi jamiyatni qurishdagi qudratli kuch va bebaho manba ekanligi.
29. Ta'lim-tarbiya - shaxs mahaviy fazilatlarini shakllantirishga qaratilgan tizim.
30. Ta'lim va tarbiyadagi uzviylik.
31. Shaxs va millat ma'naviy takomilining uyg'unligi.
32. Ma'naviy qashshoqlikning jamiyat taraqqiyotiga salbiy ta'siri.
33. Respublikamizga yot g'oyalarning kirib kelishi.
34. 90-yillardagi ma'naviy va ma'rifiy bo'shliqning oqibati.

	35. Jahonning demokratik mamlakatlarida g'oyaviy tarbiya. 36. Ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etish bo'yicha dastlabki farmonlari. 37. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etish bo'yicha qarorlari. 38. Hozirgi bosqichda ma'naviy-ma'rifiy ishlarning ahvoli va unga qoyilayotgan talablar. 39. Respublika milliy g'oya va mafkura ilmiy-amaliy markazining tashkil etilishi va faoliyati 40. Respublika Ma'naviyat va ma'rifat jamoatchilik Kengashining tashkil etilishi. 41. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Respublika Ma'naviyat va ma'rifat" kengashini qo'llab-quvvatlash to'g'risidagi farmoni va undan kelib chiqadigan vazifalar. 42. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SHavkat Mirziyoevning Respublika Ma'naviyat va ma'rifat kengashining kengaytirilgan majlisidagi nutqida belgilab beerilgan vazifalar. 43. Madaniyat sohasidagi globallashuvning sabablari. 44. Yot madaniyatga munosabat. 45. "Ommaviy madaniyat" va uning tarqalish sabablari. Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan loyixa ishi, esse, tezis yoki ilmiy maqola yozish, referatlar tayyorlash va uni taqdimot qilish tavsiya etiladi.
3	V. Talim natijalari / Kasbiy kompetentsiyalari. Talaba bilishi kerak: Magistr: magistrnlarni Mustaqillik va ma'naviy-ma'rifiy ishlarga oid bilim, ko'nikma va malakalar bilan qurollantirish - ta'lim sohasida davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari; ilmiy-nazariy asoslari, ma'naviy va ma'rifiy tarbiya nazariyasini unga oid tushunchlarni, uning kategoriya va tamoyillari; o'quv jarayonini tashkil etishning metod va shakllariga qo'yilgan zamonaviy talablar; ta'lim oluvchilar shaxsi omillari, uning shakllanish taraqqiyoti; yagona o'quv-tarbiya jarayonini tashkil etish va amalga oshirish; tarbiya jarayonining qonuniyatlari va tamoyillari; ilg'or pedagogik texnologiya asoslari; pedagogik terminologiyani bilishi kerak;
4	VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari: ➤ ma'ruzalar; ➤ real vaziyatga asoslangan amaliy ishlarni bajarish; ➤ esse, tezis va makolalar yozish; ➤ vaziyatli to'shriqlarni (keys-stadi) yechish; ➤ jarayonli-yo'naltirilgan tahlim; ➤ muxokamalarda ishtirok etish; ➤ kichik guruxlarda ishlash; ➤ loyixa ishi bajarish; ➤ mustaqil ishlarni bajarish; ➤ taqdimot tayyorlash; ➤ turli darajadagi testlarni yechish; ➤ so'rov o'tkazish.
5	VII. Kreditlarni olish uchun talablar: Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, taxlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar xaqida mustaqil mushoxada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va to'shriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha test yoki yozma ishni muvofaqiyatli to'shirish.
6	Asosiy adabiyotlar 1. Ma'naviyat. Asosiy tushunchalar izohli lug'ati. – T.: G'afur G'ulom nashriyoti, 2009 yil. 2. Aminova m. Ma'naviyatshunoslik. Darslik. Elektron variant. T.2024y. 3. Erkaev A. Ma'naviyatshunoslik. Monografiya. 1-2-kitob. – T.:Ma'naviyat, 2018.

	4. Sobirova M, Zamonov Z, Niyozmatov A, Xo‘jayev M. Milliy g‘oya, ma’naviyatning pedagogik asoslari. – Toshkent: “Nodirabegim” nashriyoti. –2022 yil. 5. Xoliqov I., Sobirova M., Masharipova G. “Ma’naviyat asoslari” fanini zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida o‘qitish. – T.:TDPU, 2013. Qo‘shimcha adabiyotlar: 1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi .2003 yil www.Lex.uz. 2. O‘zbekiston Respublikasi Oila Kodeksi www.Lex.uz. 3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 18-fevraldagi “Jamiyatda ijtimoiy ma’naviy muhitni sog‘lomlashtirish, mahalla institutini yanada qo‘llab-quvvatlash hamda oila va xotin-qizlar bilan ishlash tizimini yangi darajaga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni www.Lex.uz. 4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 9-yanvardagi “Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to‘g‘risida”gi PF-5618 son Farmon lex.uz. 5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-y 30-iyun "Kamolot" yoshlar ijtimoiy harakatining IV qurultoyidagi nutqidan. 6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti farmoni “ Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to‘g‘risida” 09.01.2019 y. 7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Yoshlarni ma’naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ulargata’lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish chora-tadbirlari to‘g‘risida» gi PQ-3907-sonli Qarori / Xalqso‘zi, 2018-yil 15-avgust. 8. Mirziyoyev Sh. M, “Insonparvarlik, ezgulik va bunyodkorlik – milliy g‘oyamizning poydevoridir” nashriyot “Tasvir” 2021 y. 9. Mirziyoev SH.M.Buyuk kelajagimizni mard va oliy janob xalqimiz bilan birga quramiz.Toshkent “O‘zbekiston” – 2017 y.www.press.servis.uz. 10. Мирзиёев Ш.М. “Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом этириб, янги босқичга кўтарамиз” (“We will resolutely continue our path of national development and raise it to a new level”). –Тошкент.: «Ўзбекистон», 2017. – Б. 125. 11. Mirziyoyev Sh. M. 2019-yil 9-yanvardagi “Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to‘g‘risida”gi PF-5618 son Farmon lex.uz. 12. Mirziyoyev Sh, M, “Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga murojaatnomasi”. 20.12.2022 y. www.prezident.uz 13. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat-yengilmas kuch. T.”Ma’naviyat” 2008 yil Internet sayllari www.tdpu.uz www.ziynet.uz www.edu.uz www.ma’naviyat.uz www.bilim.uz.
7 .	Fan dasturi Qo‘qon davlat universiteti tomonidan ishlab chiqilgan va universitet Kengashining 2025-yil 29-avgustdagi 1-sonli qarori bilan tasdiqlangan
8 .	Fan/modul uchun mas’ullar: M.M.Aminova- QDU, «milliy g‘oya va huquq» kafedrasi dotsenti, falsafa fanlari nomzodi
9 .	Taqrizchilar: Komilov O.K – AnDU “Ijtimoiy fanlar” kafedrasi pofessori,t.f.d. Baratboev B.B. – QDPI, «Milliy g‘oya, ma’naviyat asoslari» kafedrasi dotsenti, falsafa fanlari nomzodi.

